НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim yo‘nalishlari
kafedrasi o‘qituvchisi Iroda Xalimjonova

Annotation: *today, the main factor in improving the quality and effectiveness of primary education is the effective use of modern technologies of computer and information technologies.*

Keywords: *Multimedia, schools, Information speed, aspiring, efficiency, educational material, modern pedagogical.*

Annotatsiya: *Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanish asosiy omil hisoblanmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Multimedia, maktablar, axborotlar tezligi, intiluvchan, samaradorlik, o‘quv materiali, zamonaviy pedagog.*

Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarni takomillashtirish, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari” bugungi kunda boshlang‘ich tizimida dollzarblik kasb etmoqda. Boshlang‘ich ta’limni audio, video va multimediali vositalar yordamida amalga oshirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda innovatsion faoliyatlaridan biri sanaladi.

Multimedia texnologiyasi – informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obyektlarning fazodagi harakati) samaralari asosida o‘quv materiallarini tarbiyalanuvchilarga yetkazib

berishga mo‘ljallangan ko‘rinishidagi texnologiyasidir. Multimedia – bu maxsus texnologiya bo‘lib, dasturiy va texnik moddiy ta’minot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir.

Multimedia – kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Multimedia vositalari pedagogik nuqtai nazaridan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiyasi jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Kompyuterli texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirishda, o‘rganiladigan o‘quv materiallarining hajmini ko‘paytirishda va ta’lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita sifatida amalga oshirilmoqda. Unda kompyuter monitoriga qarab ekranda ko‘rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, kompyuter savodxonligini shakllantirish. Multimedia vositalari – bu apparat va dasturlar to‘plami bo‘lib, u insonga o‘zi uchun tabiiy bo‘lgan turli tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va shu kabilarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish. Multimedia foydalanuvchiga fantastik dunyoni (virtual haqiqiy) yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u yerda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga muloqat foydalanuvchi uchun odatlangan tilda — birinchi navbatda, tovushli va videoobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi. Multimedia vositalariga quyidagilar kiradi: ma’lumotlarni audio — (nutqli) va videokiritish va chiqarish qurilmalari; yuqori sifatli tovushlar (sound) va video — (video) platalar, videoqamrash platalari (video grabber), ular video magnitofondan yoki video kameradan tasvirini oladi. Yuqori sifatli kuchaytirgichli, tovush kolonkali, katta videoekranli akustik va videoqabul qiladigan tizimlar, hozirdayoq keng tarqalgan skaynerlar (chunki ular kompyuterga bosma matnlarni va rasmlarni avtomatik kiritish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan boshlang‘ich sinf darslarini o‘rganishda rivojlantiruvchi muammoli hamda pedagogik texnologiyalarni asosiy jihatlarini o‘zida ifodalovchi “Multimedia- dars”, “Slaydli dars”, “Seminar dars” kabilarni qo‘llash tavsiya etiladi. Seminar dars o‘quvchilarning mustaqil chiqishlarini jamlovchi, lozim topilgan paytda munozaraga asos yaratuvchi dars hisoblanadi. Bunday darslarda o‘qituvchi boshqarib, yo‘naltirib turish vazifasini bajaradi, o‘quvchilar esa mustaqil ijodiy ishlovchi o‘z fikriga ega shaxs sifatida o‘quv faoliyatiga kirishadilar.

“Multimediali darslar”dan foydalanish ham boshlang‘ich ta’lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi: - o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etadi; - yangi materialni jadallik bilan yetkaza biladi; - axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko‘magida boshqara oladi;

Ta’lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta’lim tizimini texnik jihatdan ta’minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to‘la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin. Ta’lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o‘quv kurslarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining interfaol o‘zaro aloqalarini

ta’minlash, multimediali o‘quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo‘ladi.

Multimedia axborotlarni har xil ko‘rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko‘rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi. Multimedia texnologiyalarida an’anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko‘rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalanilishi o‘quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo‘lishga o‘rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarda esa “multimediali dars”lar fanga bo‘lgan qiziqish uyg‘otish, o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bo‘lgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi. Ta’lim jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishda “Interaktiv doska” ning ahamyiati katta. Interaktiv doska - zamonaviy axborot texnologiyalarni o‘z ichiga qamrab oluvchi ta’limning yangi texnik vositasi bo‘lib, o‘quvchilarga axborot yetkazishning zamonaviy, qulay usuli hisoblanib o‘qituvching o‘quvchi bilim darajasi va qiziqishidan kelib chiqqan holda bilim berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida kompyuter o‘yinlarini oddiysidan boshlash lozim, so‘ngra o‘quvchilarda malaka va qiziqish osha borishi bilan o‘yinlar murakkablashtirib boriladi. Kompyuter o‘yinlari o‘quvchi diqqatini o‘rganiladigan material va o‘yin mazmuniga jalb qilishda samarali vosita hisoblanadi. Darhaqiqat, kompyuter o‘yinlarida o‘quvchilarning idroki va kuzata bilish qobiliyati rivojlanib, taraqqiy eta boshlaydi. Idrokning bir nechta turi bo‘lib, shulardan harakatni idrok etish turi o‘quvchilarning kompyuter o‘yinlari orqali rivojlanib, taraqqiy eta boshlaydi. Masalan, ”Shakllarni ustma-ust qo‘yish”, “Bo‘sh o‘rinni to‘ldir!”, “Matematik labirint”, “Tipratikanga yordam ber!”, “Misollarni yechib, obyekt (o‘rdak, soyabon, baliq) ni bo‘yang!”, “Geometrik shakllarni yasang va bo‘yang!” o‘yinlarida kompyuter ekrani (monitori)da obyektlar harakatlanadi.

Kompyuterli o‘yinlarda o‘quvchilar o‘yin obyektlarini ekranda kuzatadilar. Ammo o‘yinni bajarish qo‘l harakati asosida amalga oshiriladi, ya’ni “sichqoncha” ya klaviatura bilan ishlanadi. Yosh bolalar tevarak-atrof, voqea va hodisalar, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo‘ladilar. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib,, harakatga keltirishni yoqtiradilar. Kompyuter o‘yinlari o‘quvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatlarini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi.

Multimediali kompyuter o‘yinlarining o‘quvchilarni qiziquvchanlik xususiyatlarini oshirishi quyidagilar asosida shakllanadi:

-ekranda ko‘rsatiladigan o‘yin obyektlariga animatsiya obyekti berilgan bo‘ladi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turadi;

-tovush;

-musiqa;

-animatsiya;

-multiplikatsiya va boshq.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ – 5712- сонли Фармони. ҚҲММБ: 0619/5712/3034-сон, 29 04.2019 й.
2. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T.: Fan va texnologiya. 2009. 348-b.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: Fan

Internet ma’lumotlari

4 https://xs.uz/uz/post/maktab-ta’limini-rivojlantirish-umumxalq-harakatigaaylanishi zarur

4. https://fayllar.org/1-maruza-matematik-tasavvurlarni-shakllantirish-nazariyasi-va.html2006.